

Yoshlar ishlari agentligi ichki audit xizmati faoliyatining 2024-yil 6 oylik faoliyati bo'yicha HISOBOTI

I. Umumiy ma'lumotlar

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 20-yanvardagi PF-18-son Farmoniga muvofiq Yoshlar ishlari agentligi Yoshlar siyosati va sport vazirligi tizimidan Vazirlar Mahkamasi bo'ysinuviga o'tkazildi hamda 2024yil 31-yanvar kuni Yoshlar ishlari agentligi direktorining 01-10/24-sonli buyrug'i bilan Ichki audit bo'yicha bosh mutaxassis lavozimi joriy etildi. Strukturada ichki audit faqatgina Agentlik markaziy apparatida alohida tuzilma sifatida, 1 nafar bosh mutaxassisdan iborat, to'g'ridan to'g'ri Agentlik direktori bo'ysinuvida tashkil etildi. Hozirda ushbu lavozimda sertifikatlangan xodim ishlab kelmoqda. Agentlik tizimida Markaziy apparat, 222 ta hududiy bo'linmalar hamda 1 ta tizim tashkiloti mavjud.

II. Ichki audit yillik rejasida tasdiqlangan ichki audit tadbirlarining hisobot davrida rejalashtirilgan qismining bajarilishi holati.

Hisobot davrida yillik rejada 3 ta ichki audit obyektida nazorat tadbirlarini o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib shundan bir nafar Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasida nazorat tadbiri amalga oshirildi. Rejadan tashqari audit tadbirlari amalga oshirilmadi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Yoshlar ishlari boshqarmasida o'tkazilgan nazorat tadbiri davomida **quyidagi yo'nalishlar kesimidagi kamchiliklar aniqlandi:**

a. Markaziy apparat tomonidan ajratilgan mablag'lar bo'yicha:

Agentlik direktorining buyruq va farmoyishlarida mablag'larning iqtisod qilingan qismi Agentlik markaziy apparati budjetdan tashqari tegishli hisobvarag'iga qaytarish choralari ko'rish topshirig'i berilgan bo'lsada 2022-2023-yillar mobaynida iqtisod qilingan **660,1 mln. so'm mablag'lari bugungi kunga qadar Markaziy apparatga qaytarilmagan.**

Bunga sabab moliya iqtisod bo'limi tomonidan iqtisod qilingan mablag'larning o'z vaqtida qaytarilishi yuzasidan choralar ko'rilmaganligi hamda 2023-yil mobaynida Agentlik direktori buyruqlari orqali ajratilishi rejalashtirilgan mablag'lar ajratilmay qolganligidir. Natijada ajratilmagan mablag'larning o'rni iqtisod qilingan mablag'lar bilan qoplangan.

b. Ish haqqi va unga tenglashtirilgan to'lovlarni to'g'ri hisoblanishi va to'lanishi bo'yicha:

1. "Budjet muassasalari va tashkilotlari xodimlarini moddiy rag'batlantirish maxsus fondi to'g'risida"gi nizom talablari asosida o'rganilganda jami **9 768,8 ming** so'm ustamalar xodimlarga to'lab berilmagan;

2. Boshqarma boshlig'ining 02-03/70-sonli buyrug'iga asosan xodimlar mukofotlangan biroq 2 nafar xodimga mukofot puli **516,7 ming so'mdan kam hisoblangan;**

Bunga sabab hududiy bo'lim hisobchisining ustama va rag'batlantiruvchi to'lovlarni to'lash to'g'risidagi normativ bilan to'liq tanishmaganligi unda berilgan normalarni tushunmaganligidir. Bundan tashqari hudud hisobchilaridagi xodimlarga kam to'lash javobgarlikka tortilmaydi, muhimi ko'p to'lab qo'ymasak bo'ldi degan noto'g'ri tushuncha.

c. Mehnat kodeksi va mehnat hamda aholi bandligi to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi bo'yicha:

1. Boshqarma boshlig'i tomonidan "Yoshlar media markazi" va "Inklyuziv ta'lim markazlari"ga mutaxassislarni jalb qilish maqsadida 2023-yil davomida jami 33 ta fuqarolik huquqiy tusdagi shartnomalar rasmiylashtirilgan hamda to'lovlar amalga oshirilib kelingan biroq ushbu fuqarolar tomonidan har oy yakuni bo'yicha taqdim etiladigan **bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalar to'g'ri va to'liq rasmiylashtirilmagan.**

2. Ta'til uchun haq to'lash belgilangan muddatlarda amalga oshirilmagan.

3. Mehnat shartnomasi bekor qilingan kun xodimlarning oxirgi ish kuni sifatida kiritilmagan.

Bunga sabab fuqarolik huquqiy tusda ishlayotgan fuqarolarning bajargan ishlarini qabul qilib olish uchun biriktirilgan mas'ul xodim mas'uliyatsizligi hamda ushbu fuqaroga vazifalarni aniq belgilab, ma'lum vaqtda topshirishi bo'yicha keskin choralar qilmaganligi. Bundan tashqari hisobchilar tomonidan bajarilgan ishlar to'g'risidagi dalolatnomalar kech topshirilishiga qaramay mablag'larning to'lab berilishi.

d. Asosiy vositalar va tovar-moddiy boyliklardan foydalanish bo'yicha:

1. Boshqarma balansidagi mavjud asosiy vositalarning aksariyat qismiga inventar raqamlar yopishtirilmagan. Shuningdek moddiy javobgar shaxslarga biriktirib chiqilmagan.

Bunga sabab qonunchilikda belgilangan 2 yilda kamida 1 marta inventarizatsiya o'tkazish talabi qoniqarli darajada bajarilmayotganligi, ushbu talab faqat buyruq bilan qog'ozda rasmiylashtirilib amalda mas'ular tomonidan nazoratga olinmaganligidir.

e. Xizmat safari xarajatlari bo'yicha:

1. O'zbekiston Respublikasi hududida xizmat safarlari to'g'risidagi"gi nizom talablariga asosan xodimlar uchun to'lab berilishi lozim bo'lgan kunlik xarajatlar to'lab berilmagan.

Bunga sabab buxgalteriya xodimlarining normativ hujjatlar bilan to'liq tanishib va uni to'laqonli tushunib yetmaganligidir.

III. Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, lekin amalga oshirilmagan ichki audit tadbirlari to'g'risidagi ma'lumotlar.

Hisobot davrida o'tkazilishi rejalashtirilgan, biroq amalga oshirilmagan 2 ta audit tadbirlari mavjud. Ikkinchi chorakda iyun oyi to'liq yoshlar oyligi bo'lganligi va 30-iyun yoshlar kuni doirasida topshiriqlar hajmining oshganligi sababli nazorat obyektlarida xodimlar ish faoliyatiga ta'sir etmaslik maqsadida, ikkinchi chorakda rejalashtirilgan nazorat tadbirlari uchinchi va to'rtinchi choraklarda amalga oshiriladi.

IV. Ichki audit obyektlari tomonidan chora-tadbirlar rejasining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar.

Ichki audit tadbirida jami 9 ta taklif va tavsiyalar berilgan bo'lib shundan 7 tasi bugungi kunga qadar bajarildi, 2 tasi shtatlar jadvaliga o'zgartirish kiritish, mablag'larni Markaziy apparatga qaytarish bilan bog'liq bo'lganligi uchun bugungi kunga qadar ijrosi ta'minlanmadi.

V. Ichki audit xizmati faoliyatini rivojlantirish bo'yicha takliflar.

Takliflar mavjud emas.

VI. Ichki audit xizmati faoliyati sifatini ta'minlash va oshirish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar.

2024-yil 31-yanvar kuni Yoshlar ishlari agentligi direktorining 01-10/24-sonli buyrug'i bilan joriy yilning 01-fevralidan Ichki audit bo'yicha bosh mutaxassis lavozimi joriy etildi.

VII. Aniqlangan tizimli kamchiliklar, xavflar va ularning oldini olish hamda bartaraf etish bo'yicha amalga oshirilgan ishlar

Agentlikning ayrim tuman bo'limlarida bugungi kunda ish haqi va unga tenglashtirilgan to'lovlar naqd ko'rinishida ham berilish holatlari aniqlanmoqda, Natijada yoshlar yetakchilarga berilayotgan ish haqi mablag'lari to'lov qaydnomasidagi imzolar soxtalashtirish orqali o'zlashtirilish xavfi mavjud.

Ushbu xavfni oldini olish maqsadida Agentlik direktorining topshiriq xati orqali barcha tizim tashkilotlari ish haqi mablag'lari naqdsiz ko'rinishga o'tkazildi.

Naqd ko'rinishida mablag' olish holatlari ustidan har oyda masofaviy nazorat o'tkazilmoqda.

VIII. Vazirlik va idora faoliyatida budjet intizomini mustahkamlash, xavflarni profilaktika qilish hamda budjet xarajatlari natijadorligi va samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar.

Takliflar mavjud emas.

**Ichki audit bo'yicha
bosh mutaxassis**

N. Xayrullayev